

O‘zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo‘mitasining
2022- yil 29-avgustdagi 31-sonli
qaroriga ILOVA

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini shakllantirish
bo‘yicha uslubiy nizom

Mazkur uslubiy nizom iste’mol tovarlari ishlab chiqarilishi bo‘yicha statistika ma’lumotlarini shakllantirish tartibini belgilaydi va iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi to‘g‘risida statistika ma’lumotlarini shakllantirish uchun davlat statistika organlari tomonidan foydalanishga mo‘ljallangan.

Ushbu uslubiy nizomni ishlab chiqishda, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi tashkilotlar faoliyatini belgilab beruvchi O‘zbekiston Respublikasi normativ huquqiy hujjatlari, Milliy hisoblar tizimi (MHT) – 2008 ning ta’riflari va xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari inobatga olingan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta’riflar qo‘llaniladi:

Iste’mol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy iste’mol uchun yoki foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.

Iste’mol tovarlari oziq-ovqat tovarlari, nooziq-ovqat tovarlar, vino-arq mahsulotlari va pivoga bo‘linadi.

Oziq-ovqat tovarlari – yeyiladigan (oziq-ovqat) mahsulotlarni, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.

Vino-arq mahsulotlari va pivo – bu distillangan spirtli ichimliklar, uzum vinolari, olma shirasidan tayyorlangan vino, boshqa mevalardan tayyorlangan vinolar, distillanmagan achitilgan boshqa ichimliklar va pivo.

Nooziq-ovqat tovarlari – tayyor to‘qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechaklar, poyabzallar, chemodanlar, sakvoyajlar, ayollar sumkalari va shunga o‘xshash buyumlar, maishiy asboblari, sport tovarlari, o‘yinlar, o‘yinchoqlar va asosan shaxsiy iste’mol uchun foydalaniladigan boshqa nooziq-ovqat tovarlarini o‘z ichiga oladi.

2-bob. Iste’mol tovarlari ishlab chiqarishning umumiy
hajmini shakllantirish

2. Iste’mol tovarlari ishlab chiqarishning umumiy hajmini shakllantirishda, mazkur uslubiy nizomning ilovasida keltirilgan tovarlar bo‘yicha barcha xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hisobga olinadi.

Ushbu hajmga, jismoniy shaxslarga pul ko‘chirish yo‘li bilan, shartnoma yoki firma do‘konlari orqali sotilgan, o‘zida ishlab chiqarilgan mahsulotlar ham kiritiladi.

3. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, korxonaning o'z sanoat ishlab chiqarishi ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni hisobga olmagan holda, ya'ni ichki ishlab chiqarish xarajatlar qiymatisiz aniqlanadi.

4. Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizsiz) hisoblanadi.

Taqqosliylilikni ta'minlash maqsadida hisobot yilining va o'tgan yilning tegishli davridagi iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari hisobot yilining amaldagi narxlarida ko'rsatiladi.

Hisobot yili davomida narxlar o'zgarganda, mahsulotlarning yangi narxlarda qayta baholanishi ushbu narxlarning joriy qilingan vaqtidan boshlab amalga oshiriladi. Hisobot va o'tgan yildan oldingi davr uchun ma'lumotlar, hisobot oyidan tashqari, joriy qilingan yangi narxlarda qayta baholanmaydi. Xuddi shu tarzda, mahsulotlarning ayrim turlari bo'yicha qiymat ko'rinishida hisobga olinadigan ma'lumotlari aniqlanadi.

Hisobot davrida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish umumiy hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$T = \frac{V_t / I_t}{V_{t-1}} \times 100 \%,$$

T – hisobot davrida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi, % da;

V_t – hisobot davrida ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari hajmi, amaldagi narxlarda;

I_t – hisobot davrida o'tgan yilning mos davriga nisbatan iste'mol narxlari indeksi;

V_{t-1} – o'tgan yilning mos davrida ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari hajmi, o'tgan yilning amaldagi narxlarida.

Hisobot davrida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$F = \frac{V_{ft} / I_{ft}}{V_{ft(t-1)}} \times 100 \%,$$

F – hisobot davrida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi, % da;

V_{ft} – hisobot davrida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarini hajmi, amaldagi narxlarda;

I_{ft} – hisobot davrida o'tgan yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi;

$V_{ft(t-1)}$ – o'tgan yilning mos davrida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi, o'tgan yilning amaldagi narxlarida.

Hisobot davrida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$NF = \frac{V_{nft} / I_{nft}}{V_{nft-1}} \times 100 \%,$$

NF – hisobot davrida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi, % da;

V_{nft} – hisobot davrida ishlab chiqarilgan nooziq-ovqat mahsulotlarni hajmi, amaldagi narxlarda;

I_{nft} – hisobot davrida o'tgan yilning mos davriga nisbatan nooziq-ovqat mahsulotlarning iste'mol narxlari indeksi;

V_{nft-1} – o'tgan yilning mos davrida ishlab chiqarilgan nooziq-ovqat mahsulotlar hajmi, o'tgan yilning amaldagi narxlarida.

Hisobot davrida vino-arq mahsulotlari va pivo ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$VV = \frac{V_{vt} / I_{vt}}{V_{vt-1}} \times 100 \%,$$

VV – hisobot davrida vino-arq mahsulotlari va pivo ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi, % da;

V_{vt} – hisobot davrida ishlab chiqarilgan vino-arq mahsulotlari va pivo hajmi, amaldagi narxlarda;

I_{vt} – hisobot davrida o'tgan yilning mos davriga nisbatan vino-arq mahsulotlari va pivo iste'mol narxlari indeksi;

V_{vt-1} – o'tgan yilning mos davrida ishlab chiqarilgan vino-arq mahsulotlari va pivo hajmi, o'tgan yilning amaldagi narxlarida.

5. Buyurtmachi tomonidan berilgan xomashyodan ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari, bunda korxona tomonidan to'langan yoki to'lanmagan xomashyodan mahsulotlar ishlab chiqarilganligidan qat'iy nazar, buyurtmachi tomonidan berilgan xomashyo va materiallar qiymatini ayirmagan holda baholanadi.

3-bob. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini shakllantirish uchun ma'lumotlar manbai

6. Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmi quyidagi ma'lumotlar asosida shakllantiriladi:

a) iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar uchun statistika hisobotlari (oylik, yillik);

b) kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuvlari;

v) bozorlarda, mahalla va guzarlarda hamda aholi gavjum bo'lgan boshqa joylarda o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarini sotish bilan shug'ullanadigan yakka tartibdagi tadbirkorlarning (jismaniy shaxslarning) choraklik tanlanma kuzatuvlari;

d) davlat soliq organlari ma'lumotlari;

e) uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvi natijalari.

7. Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmining aniqroq ma'lumotlari yilida bir marotaba yirik tijorat tashkilotlar, fermer xo'jaliklari, notijorat tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan yillik davlat statistik hisobotlari, tijorat kichik korxonalari va mikrofirmalar tomonidan taqdim etiladigan unifikatsiyalashgan hisobotlar, uy xo'jaliklarining sanoat mahsulotlari (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha baholashlar asosida shakllantiriladi.

8. Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmining har oylik ma'lumotlari yirik tijorat tashkilotlarining hisobot ma'lumotlari, kichik korxona va mikrofirmalar, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, shu jumladan fermer xo'jaliklari, notijorat tashkilotlari hamda uy xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmini baholash asosida aniqlanadi.

“Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom”ning ilovasida keltirilgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi asosida shakllantirilgan iste'mol tovarlari toifasiga kiruvchi mahsulotlar ro'yxati, hisobot taqdim etuvchi sub'yekt tomonidan ishlab chiqarilgan tegishli turdagi iste'mol tovarlarini kodlash uchun foydalaniladi.

4-bob. Oziq-ovqat tovarlari

9. Oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmi shaxsiy iste'mol uchun mo'ljallangan quyidagi yeyiladigan (oziq-ovqat) mahsulotlarni va ichimliklarni (vino-aroq mahsulotlar va pivosiz) o'z ichiga oladi:

a) go'sht va go'sht mahsulotlari;

b) qayta ishlangan va konservalangan baliq, qisqichbaqasimonlar va moll'yuskalar;

v) qayta ishlangan va konservalangan mevalar va sabzavotlar;

g) hayvonlar va o'simlik moylari va yog'lari;

d) sut mahsulotlari;

e) un, guruch, yorma;

j) non mahsulotlari va xamirdan tayyorlangan qandolat mahsulotlari;

z) makaron mahsulotlari, kuskus va shunga o'xshash xamirdan tayyorlangan mahsulotlar;

i) shakar, kakao, shokolad va shakardan tayyorlangan qandolat mahsulotlari, choy, kofe, ziravorlar, rezavorlar;

k) spirtsiz ichimliklar, mineral suvlari;

l) boshqa tayyor yeyiladigan (oziq-ovqat) mahsulotlari.

5-bob. Vino-arog mahsulotlari va pivo

10. Vino-arog mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga quyidagilar kiritiladi:

a) distillangan spirtli ichimliklar – konyak spirtidan tashqari, uzum vinosi yoki siqilgan uzumning distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, aroq, likyor, distillangan boshqa spirtli ichimliklar;

b) uzum vinolari, vijillab turadigan tabiiy uzum vinolari, tabiiy uzum (vijillab turadiganlardan tashqari) musallasi, oq va qizil tabiiy uzum desert vinolari, spirt konsentrati 15% dan ortiq bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari;

v) olma vinosi va boshqa mevalardan tayyorlangan vinolar – tarkibida alkogoli bo'lgan fermentlangan boshqa ichimliklar (olma vinosi, nok vinosi, asaldan tayyorlangan ichimliklar), ichimliklar aralashmasi;

g) distillanmagan fermentlangan boshqa ichimliklar – vermut va boshqa aromatik tabiiy uzum vinolari;

d) pivo (pivo ishlab chiqarishdagi chiqindilardan tashqari).

6-bob. Nooziq-ovqat tovarlari

11. Nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmiga quyidagilar kiritiladi:

a) to'qimachilik mahsulotlari – chakana savdo uchun qadoqlangan jun, ipak, paxta yoki kimyoviy tolalardan tayyorlangan iplar, to'qimachilik matolari, jut va lubli to'qimachilik tolalardan tayyorlangan matolarsiz (zig'irdan tashqari), tukli, paxmoq va boshqa maxsus matolar, mo'ynali imitatsiya matolari, trikotaj matolar; tayyor to'qimachilik mahsulotlari, qadoqlash uchun mo'ljallangan xalta va paketlardan tashqari, brezentlar, soyabonlar, chodirlar, parashyutlar; gilam va gilam mahsulotlari;

b) teridan tayyorlangan kiyim, ish kiyimi, boshqa tashqi kiyim, ichki kiyim, boshqa kiyimlar va aksessuarlar, mo'ynali buyumlar, trikotaj yoki to'qilgan buyumlar;

v) uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlari – linoleum, maishiy elektrlashtirilmagan jihozlar, cho'milish xonalari va oshxonalar uchun metall buyumlar, maishiy tikuv mashinalari, romlarga yoki devorga o'rnatiladigan yoki "split tizimli" havoni konditsiyalash qurilmalari, maishiy asboblari, radiopriyomnik, televizor, keng ommaga radioeshittirish uzatish uchun o'zida mujassamlagan yoki mujassamlamagan radiopriyomnik yoki qurilmaga ega ovozni yoki suratni yozib olish yoki eshittirish uchun mo'ljallangan mangitofonlar va boshqa ovozni yozib olish moslamalari, maishiy elektr jihozlar, mebel, barcha turdagi soatlar, zargarlik buyumlari va shunga o'xshash mahsulotlar, musiqa asboblari, eshitish apparatlari;

g) boshqa guruhlariga kiritilmagan yarim uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlari – rasm, surat, oyna yoki shunga o'xshash narsalar uchun yog'och romlar va yog'ochdan tayyorlangan boshqa buyumlar; kemping uchun chodirlar, yelkanlar va boshqa aslaha-anjomlari; ichish uchun shisha idishlar (shisha-keramik idishlardan tashqari); oshxonada stol tuzash uchun foydalaniladigan shisha buyumlari; hojatxona va kanselyariya jihozlari; interer bezatgichlari

va shunga o'xshash buyumlar; sopoldan qilingan xo'jalik va bezash buyumlari; pichoq buyumlari va oshxona jihozlari; cho'milish xonalari va oshxonalar uchun metall buyumlar; yozish, xotirada saqlash va ma'lumotlarni vizual namoyish etish uchun elektron kalkulyatorlar va cho'ntakka solib yuradigan kalkulyator vazifasini bajaruvchi moslamalar; simli aloqa uchun simsiz trubkaga ega telefon apparatlari; stolga, devorga yoki yerga qo'yiladigan elektr chiroqlar; matraslar, adyollar va yostiqlar; ko'zoynaklar, saqlagich ko'zoynaklar va shunga o'xshash tuzatadigan, himoyalaydigan yoki boshqa optik asboblari; cho'milish toslari, bet-qo'l yuvgich rakovinalari, unitazlar va ularning qopqoqlari, yuvish bochkalari va plastmasadan qilingan shunga o'xshash sanitariya texnik vositalari; oshxona, ovqatlanadigan xona, hojatxona va boshqa joylar uchun plastmasadan qilingan uy anjomlari; o'yin va o'yinchoqlar; sport tovarlari; boshqa guruhlariga kiritilmagan har xil buyumlar;

d) boshqa guruhlariga kiritilmagan qisqa muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlari – boshqa guruhlariga kiritilmagan tamaki yoki tamakini o'rmini bosuvchi boshqa narsalardan qilingan tamaki mahsulotlari; sanoatda ishlab chiqarilgan chekiladigan tamaki yoki uni o'rmini bosuvchilar; rassomlar, o'quvchilar yoki ko'rgazma bezatuvchilar uchun buyoqlar; bo'sh vaqtda foydalaniladigan buyoqlar, turli rang buyoqlari va shunga o'xshash mahsulotlar; dori vositalari (medikamentlar), attorlik mollari va pardoz-andoz vositalari; sovun va sovun kabi foydalaniladigan organik ustki aktiv moddalar; yuvish va tozalash vositalari; tayyor yelimlar va boshqa guruhlariga kiritilmagan tayyor adgezivlar; vulkanizatsiyalashgan rezinadan (qattiq rezinadan tashqari) gigiyenik yoki farmatsevtik mahsulotlar (so'rg'ichlarni qo'shgan holda); konvertlar, pochta otkritka-xatlarlari, qog'ozdan yoki kartondan tayyorlangan oddiy pochta otkritkalari; qobig'i bilan qog'ozdan kanselyariya tovarlari; daftarlar; markalar, rasmlar, yorliqlar va qog'ozdan yoki kartondan tayyorlangan boshqa namuna va kolleksiyalar uchun albomlar; qog'ozdan tayyorlangan xo'jalik-maishiy va sanitariya gigiyenik maqsadda foydalaniladigan buyumlar va hojatxona buyumlari; tikish ignalari, to'qish spitsalari, shila, to'r to'qiladigan piltalar; boshqa guruhlariga kiritilmagan qora metallardan tayyorlangan inglizcha va boshqa nina to'g'nag'ichlar; cho'g'lanma lampalar;

e) transport vositalari – yengil avtomobillar;

j) sanoatga aloqador bo'lmagan transport vositalari, yengil avtomobillardan tashqari - motosikllar va motosikl aravachalari, velosipedlar, nogironlar va bolalar aravachalari.

12. Nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmiga jismoniy shaxslarga pul ko'chirish yo'li bilan, shartnoma yoki firma do'konlari orqali sotilgan, dastlab sanoat uchun (xomashyo sifatida va qayta ishlangan) ishlab chiqarilgan mahsulotlar ham kiritiladi. Misol uchun: benzin, dizel yoqilg'isi, ko'mir va boshqa yoqilg'i-moylash materiallari; yengil avtomobillar uchun ehtiyot qismlar va detallar; qurilish mollari; aralash ozuqalar (kombikorm); turli maqsadlarda foydalaniladigan quvurlar va boshqa mahsulotlar.

Foydalanilgan ma'lumotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat standarti O'zDSt 2914:2014// "Uzstandart" agentligining 2015- yil 19- yanvardagi 05-612- son qarori bilan tasdiqlangan, Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST).
2. Sanoat statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar 2008- y.
3. Keng iqtisodiy toifalar bo'yicha tasniflagich, M Seriyasi 53- son (Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 2004- y.).

Iste'mol tovarlari
ishlab chiqarish hajmini shakllantirish
bo'yicha uslubiy nizomga ILOVA

Iste'mol tovarlari hajmiga kiritiladigan mahsulotlar ro'yxati

MST kodi	Mahsulot nomi
Oziq-ovqat tovarlari	
10.11.11.1	Yangi so'yilgan (ilig'i ketmagan va seli qotgan) yoki sovitilgan mol go'shti
10.11.11.9	Boshqa yirik shoxli qoramol go'shti, yangi so'yilgan (ilig'i ketmagan va seli qotgan) yoki sovitilgan
10.11.12.0	Yangi so'yilgan (ilig'i ketmagan va seli qotgan) yoki sovitilgan cho'chqa go'shti
10.11.13.0	Yangi so'yilgan (ilig'i ketmagan va seli qotgan) yoki sovitilgan qo'y go'shti
10.11.14.0	Yangi so'yilgan (ilig'i ketmagan va seli qotgan) yoki sovitilgan echki go'shti
10.11.15.0	Ot go'shti va otsimonlar oilasiga kiruvchi boshqa hayvonlarning go'shti, yangi so'yilgan (ilig'i ketmagan va seli qotgan) yoki sovitilgan
10.11.20.0	Yirik shoxli qoramol, cho'chqa, qo'y, echki, otsimonlar oilasiga kiruvchi hayvonlarning ozuqaviy submahsulotlari, yangi (ilig'i ketmagan va seli qotgan) yoki sovitilgan
10.11.31.0	Muzlatilgan yirik shoxli qoramol go'shti
10.11.32.0	Muzlatilgan cho'chqa go'shti
10.11.33.0	Muzlatilgan qo'y go'shti
10.11.34.0	Muzlatilgan echki go'shti
10.11.35.0	Ot go'shti va boshqa otsimonlar oilasiga kiruvchi hayvonlar go'shti, muzlatilgan
10.11.39.0	Boshqa go'sht va ozuqaviy submahsulotlar, yangi, sovitilgan yoki muzlatilgan
10.12.10.0	Yangi so'yilgan (ilig'i ketmagan va seli qotgan) yoki sovitilgan uy parrandalari go'shti
10.12.20.0	Muzlatilgan uy parrandalari go'shti
10.12.40.0	Uy parrandalarining ozuqaviy submahsulotlari
10.13.11.0	Tuzlangan, quritilgan yoki dudlangan cho'chqa go'shti (bekon va son go'shti)
10.13.12.0	Tuzlangan, quritilgan yoki dudlangan yirik shoxli qoramol go'shti
10.13.13.1	Boshqa tuzlangan, namakobga solingan, quritilgan yoki dudlangan go'sht va ozuqaviy go'sht submahsulotlari (mol go'shti, buzoq go'shti va cho'chqa go'shtidan tashqari)
10.13.13.2	Go'sht yoki go'sht submahsulotlaridan ozuqaviy mayda va yirik tortilgan un
10.13.14.1	Pishirilgan kolbasalar
10.13.14.2	Sosiska va sardelkalar
10.13.14.3	Yarim dudlangan va dudlangan kolbasalar
10.13.14.4	Parranda go'shtidan tayyorlangan kolbasa mahsulotlari
10.13.14.5	Ot go'shtidan tayyorlangan kolbasa mahsulotlari
10.13.14.9	Go'sht, go'sht submahsulotlari va hayvonlar qonidan tayyorlangan boshqa kolbasa va shu kabi mahsulotlar
10.13.15.1	Go'sht konservalari
10.13.15.2	Go'sht va o'simlik konservalari
10.13.15.3	Go'shtli va tarkibida go'sht bo'lgan yarim fabrikatlar
10.13.15.4	Kotletlar
10.13.15.5	Go'shtli frikadelkalar
10.13.15.6	Go'shtli qiyma
10.13.15.9	Boshqa guruhlarga kiritilmagan go'sht, go'sht submahsulotlari va hayvonlar

MST kodi	Mahsulot nomi
	qonidan tayyorlangan va konservalangan boshqa mahsulotlar
10.20.11.0	Yangi yoki sovutilgan baliq lahimi va boshqa baliq go'shti (jumladan qiyma)
10.20.12.0	Yangi yoki sovutilgan baliq jigari va ikresi
10.20.13.0	Muzlatilgan baliq
10.20.14.0	Muzlatilgan baliq lahimi
10.20.15.0	Muzlatilgan boshqa baliq go'shti (maydalangan yoki maydalanmagan)
10.20.16.0	Muzlatilgan baliq jigari va ikresi
10.20.21.0	Qoqlangan, tuzlangan, namakobga solingan, lekin dudlanmagan baliq lahimi
10.20.22.0	Qoqlangan, tuzlangan yoki namakobga solingan, dudlangan baliq jigari va ikresi; ozuqaviy baliq uni, kukuni va granulalari
10.20.23.1	Qoqlangan va quritilgan baliq (tuzlangan yoki tuzlanmagan)
10.20.23.2	Tuzlangan va namakobga yoki marinadga solingan baliq, qoqlangan va quritilgandan tashqari
10.20.24.0	Dudlangan baliq, jumladan baliq lahimi
10.20.25.1	Baliq konservalari
10.20.25.9	Boshqa guruhlarga kiritilmagan, baliqdan tayyorlangan va konservalangan boshqa mahsulotlar
10.20.26.0	Ikra va ikraning o'rnini bosuvchi mahsulotlar
10.20.31.0	Muzlatilgan qisqichbaqasimonlar
10.20.32.0	Muzlatilgan, quritilgan, dudlangan, tuzlangan yoki namakobga solingan mollyuskalar
10.20.33.0	Muzlatilgan, quritilgan, dudlangan, tuzlangan yoki namakobga solingan boshqa suv umurtqasizlari
10.20.34.0	Boshqa usullar bilan qayta ishlangan va konservalangan qisqichbaqasimonlar; boshqa usullar bilan qayta ishlangan va konservalangan mollyuskalar va boshqa suv umurtqasizlari
10.31.11.0	Muzlatilgan kartoshka
10.31.12.0	Quritilgan, butun yoki tilimlarga bo'lingan, lekin boshqa ishlov berilmagan kartoshka
10.31.14.1	Tilim va qalamcha shaklidagi qisirlovchi kartoshka (jumladan kartoshka chipsi)
10.31.14.9	Boshqa guruhlarga kiritilmagan qayta ishlangan va konservalangan kartoshka
10.32.11.0	Pomidor sharbati
10.32.12.0	Apelsin sharbati
10.32.13.0	Greypfrut sharbati
10.32.14.0	Ananas sharbati
10.32.15.1	Briks soni 67dan yuqori bo'lgan uzum sharbati
10.32.15.9	Boshqa uzum sharbati
10.32.16.1	Briks soni 67dan yuqori bo'lgan olma sharbati
10.32.16.9	Boshqa olma sharbati
10.32.17.0	Meva va sabzavot sharbatlari aralashmalari
10.32.19.1	O'rik sharbati
10.32.19.2	Shaftoli sharbati
10.32.19.3	Briks soni 67dan yuqori bo'lgan quyuqlashtirilgan olcha sharbati
10.32.19.4	Boshqa olcha sharbati
10.32.19.5	Briks soni 67dan yuqori bo'lgan quyuqlashtirilgan anor sharbati
10.32.19.6	Boshqa anor sharbati
10.32.19.7	Pomidor sharbatidan tashqari sabzavotlar sharbati
10.32.19.9	Boshqa guruhlarga kiritilmagan boshqa meva sharbatlari
10.39.11.0	Muzlatilgan sabzavotlar (kartoshkadan tashqari) va qo'ziqorinlar

MST kodi	Mahsulot nomi
10.39.12.0	Qisqa vaqt saqlash uchun konservalangan sabzavot va qo'ziqorinlar
10.39.13.1	Quritilgan piyoz
10.39.13.9	Boshqa guruhlariga kiritilmagan quritilgan sabzavotlar
10.39.14.0	To'g'ralgan va idishga joylangan sabzavot va mevalar
10.39.15.0	Sirka yoki sirka kislotasi qo'shmasdan konservalangan loviya (tayyor taomlardan tashqari)
10.39.16.0	Sirka yoki sirka kislotasi qo'shmasdan konservalangan no'xat (tayyor taomlardan tashqari)
10.39.17.1	Sirka yoki sirka kislotasi qo'shmasdan konservalangan butun yoki to'g'ralgan pomidor (tayyor taomlardan tashqari)
10.39.17.2	Sirka yoki sirka kislotasi qo'shmasdan konservalangan pyure va pasta holiday pomidor (tayyor taomlardan tashqari)
10.39.17.3	Sirka yoki sirka kislotasi qo'shmasdan tayyorlangan yoki konservalangan qo'ziqorinlar (tayyor taomlar, quritilgan va muzlatilgan qo'ziqorinlardan tashqari)
10.39.17.4	Boshqa guruhlariga kiritilmagan muzlatilgan, sirka yoki sirka kislotasisiz konservalangan sabzavotlar va sabzavot aralashmalari (tayyor taomlardan tashqari)
10.39.17.5	Muzlatilmagan, sirka yoki sirka kislotasisiz konservalangan tuzlangan karam (tayyor taomlardan tashqari)
10.39.17.6	Muzlatilmagan, sirka yoki sirka kislotasisiz konservalangan sarsabil (tayyor taomlar, quritilgan sarsabildan tashqari)
10.39.17.7	Muzlatilmagan, sirka yoki sirka kislotasisiz konservalangan zaytun (tayyor taomlar, quritilgan zaytundan tashqari)
10.39.17.8	Muzlatilmagan, sirka yoki sirka kislotasisiz konservalangan shirin jo'xori (tayyor taomlar, quritilgan shirin jo'xoridan tashqari)
10.39.17.9	Boshqa guruhlariga kiritilmagan muzlatilmagan, sirka yoki sirka kislotasisiz konservalangan sabzavot va sabzavot aralashmalari (tayyor taomlardan tashqari)
10.39.18.1	Sirka yoki sirka kislotasi qo'shib konservalangan bodringlar
10.39.18.2	Sirka yoki sirka kislotasi qo'shib konservalangan pomidorlar
10.39.18.3	Sirka yoki sirka kislotasi qo'shib konservalangan qo'ziqorinlar
10.39.18.9	Sirka yoki sirka kislotasi qo'shib konservalangan boshqa sabzavotlar, mevalar yoki o'simliklarning ovqatga ishlatiladigan qismlari
10.39.21.0	Yangi yoki pishirilgan, muzlatilgan mevalar va yong'oqlar
10.39.22.1	Sitrus o'simliklaridan issiqlik yordamida ishlov berish yo'li bilan olingan shinni, marmelad, jele, pyurelar (gomogenizatsiyalangan mahsulotlardan tashqari)
10.39.22.2	Boshqa meva va yong'oqlardan issiqlik yordamida ishlov berish yo'li bilan olingan shinni, marmelad, jele, pyure, konfityur, povidlo, murabbolar (gomogenizatsiyalangan mahsulotlardan tashqari)
10.39.23.1	Qovurilgan, tuzlangan yoki boshqa usulda ishlov berilgan yeryong'oq (jumladan yeryong'oq yog'i)
10.39.23.2	Qovurilgan, tuzlangan yoki boshqa usulda ishlov berilgan kungaboqar urug'i va mag'izi
10.39.25.1	Quritilgan uzum (mayiz)
10.39.25.2	Quritilgan o'rik (turshak)
10.39.25.3	Boshqa quritilgan mevalar (uzum va o'rikdan tashqari)
10.39.25.9	Boshqa guruhlariga kiritilmagan qayta ishlangan yoki konservalangan mevalar (myuslidan tashqari)
10.41.51.0	Tozalangan soya yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)
10.41.52.0	Tozalangan yenyong'oq yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya

MST kodi	Mahsulot nomi
	qilinganlaridan tashqari)
10.41.53.0	Tozalangan zaytun yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)
10.41.54.0	Tozalangan kungaboqar yoki maxsar yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)
10.41.55.0	Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)
10.41.56.0	Tozalangan raps, surepitsa va xantal yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)
10.41.57.0	Tozalangan palma yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)
10.41.58.0	Tozalangan kokos yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)
10.41.59.1	Tozalangan mevali daraxtlar danagidan olingan yog'lar (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)
10.41.59.9	Tozalangan boshqa yog'lar va ularning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari); boshqa guruhlariga kiritilmagan boshqa aralash o'simlik yog'lari va moylari (makkajo'xori va danak yog'idan tashqari) va ularning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)
10.42.10.1	Margarin va spredlar (pastasimon mahsulot)
10.42.10.9	Boshqa ozuqaviy yog' va moylar, jumladan suyuq margarin
10.51.11.0	Ishlov berilgan suyuq sut
10.51.12.0	Quyultirilmagan va shakar qo'shilmagan, yog'liligi 6 % dan yuqori sut va qaymoq
10.51.21.0	Yog'sizlantirilgan quruq sut
10.51.22.0	Qaymog'i olinmagan quruq sut
10.51.30.1	Sariyog'
10.51.30.2	Sut pastalari
10.51.30.9	Sutdan olingan boshqa yog' va moylar
10.51.40.1	Yetilmagan pishloqlar (jumladan zardobdan tayyorlangan pishloqlar)
10.51.40.2	Tvorog va tvorogdan mahsulotlar
10.51.40.3	Yumshoq pishloq
10.51.40.9	Boshqa guruhlariga kiritilmagan pishloqlar
10.51.51.1	Shakar yoki boshqa shirinlik qo'shib quyultirilgan sut va qaymoq
10.51.51.2	Shakar yoki boshqa shirinlik qo'shmasdan quyultirilgan sut va qaymoq
10.51.52.1	Yogurt
10.51.52.2	Xushta'm qo'shimchalar va meva, yong'oq yoki kakao qo'shilmagan, bijg'itilgan yoki ivitilgan sut yoki qaymoqning boshqa turlari
10.51.52.3	Xushta'm qo'shimchalar va meva, yong'oq yoki kakao qo'shilgan, bijg'itilgan yoki ivitilgan sut yoki qaymoqning boshqa turlari
10.52.10.0	Muzqaymoq va boshqa ozuqaviy muz
10.61.11.0	Tozalangan guruch
10.61.12.0	Yarim yoki to'liq oqlangan yoki yanchilgan guruch
10.61.21.1	Qattiq bug'doy uni
10.61.21.2	Yumshoq bug'doy va spelta uni
10.61.21.3	Bug'doy-javdar uni
10.61.22.1	Makkajo'xori uni
10.61.22.2	Boshqa don ekinlarining uni (bug'doy, bug'doy-javdar yoki makkajo'xori unidan tashqari)
10.61.23.1	Dukkakli o'simliklardan mayda va yirik tortilgan un

MST kodi	Mahsulot nomi
10.61.23.2	Mevalar yoki yong'oqlardan mayda va yirik tortilgan un
10.61.23.9	Boshqa o'simliklardan mayda va yirik tortilgan un
10.61.24.0	Non va xamirdan qandolat mahsulotlari tayyorlash uchun aralashmalar
10.61.31.1	Qattiq bug'doydan yorma va yirik tortilgan un
10.61.31.2	Yumshoq bug'doy va speltadan yorma va yirik tortilgan un
10.61.32.1	Makkajo'xoridan yorma va yirik tortilgan un
10.61.32.2	Arpadan yorma va yirik tortilgan un
10.61.32.3	Sulidan yorma va yirik tortilgan un
10.61.32.9	Boshqa guruhlariga kiritilmagan yorma va yirik tortilgan un, don ekinlaridan granulalar
10.61.33.1	Yassilangan yoki yanchilgan suli doni
10.61.33.2	Yassilangan yoki yanchilgan boshqa boshqoli donlar
10.61.33.3	Makkajo'xori donidan kepchitish yoki qovurish yo'li bilan olingan tayyor ovqat mahsulotlari
10.61.33.9	Boshqa guruhlariga kiritilmagan boshqoli donlardan olingan mahsulotlar
10.62.11.1	Kartoshka kraxmali
10.62.11.2	Makkajo'xori kraxmali
10.62.11.3	Kartoshka va makkajo'xori kraxmalidan tashqari kraxmallar, inulin
10.62.14.0	Makkajo'xori yog'i
10.71.11.1	Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 g (buxanka)
10.71.11.2	Milliy non (yopgan non)
10.71.11.9	Boshqa guruhlariga kiritilmagan, tarkibida asal, tuxum, pishloq yoki mevalar bo'lmagan uzoq saqlanmaydigan boshqa non mahsulotlari
10.71.12.0	Uzoq saqlanmaydigan xamirdan tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tortlar va pirojniylar
10.72.11.0	Kasirlama non, suxari, qovurilgan burda non va shu kabi qovurilgan mahsulotlar
10.72.12.1	Shirin quruq pecheniy
10.72.12.2	Vafli
10.72.12.3	Zanjabilli pecheniy va pryaniklar va shu kabi mahsulotlar
10.72.19.1	Xamirturushsiz xamirdan tayyorlangan non (matsa)
10.72.19.2	Quruq pecheniy, shirinidan tashqari
10.72.19.3	Farmatsevtika maqsadlarida ishlatish uchun yaroqli vafli plastinalari, bo'sh kapsulalar, pechatlash uchun vafli, sholi qog'oz va shu kabi mahsulotlar
10.72.19.4	O'tkir ta'mli yoki sho'r cho'zilgan non mahsulotlari
10.72.19.9	Boshqa guruhlariga kiritilmagan quruq yoki uzoq saqlanadigan boshqa non mahsulotlari
10.73.11.0	Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar
10.73.12.0	Kuskus
10.81.12.1	Shakar
10.81.12.9	Boshqa guruhlariga kiritilmagan, aromatik va bo'yovchi moddalar qo'shilmagan shakarqamish yoki qandlavlagidan tozalangan shakar va kimyoviy toza saxaroza
10.81.13.0	Aromatik va bo'yovchi moddalar qo'shilgan shakarqamish yoki qandlavlagidan tozalangan shakar; zarang daraxtidan olingan shakar va sirop
10.82.13.0	Shakar yoki boshqa shirinlik qo'shilmagan kakao-poroshok
10.82.14.0	Shakar yoki boshqa shirinlik qo'shilgan kakao-poroshok
10.82.22.1	Ichiga masalliq solinmagan shokolad va shu kabi mahsulotlar, briketlarda, plastinalarda yoki plitkalarda
10.82.22.2	Ichiga masalliq solingan shokolad va shu kabi mahsulotlar, briketlarda, plastinalarda yoki plitkalarda

MST kodi	Mahsulot nomi
10.82.22.3	Tarkibida alkogol bo'lgan, ichiga masalliq solingan yoki solinmagan shokoladli konfetlar
10.82.22.4	Ichiga masalliq solingan yoki solinmagan boshqa shokoladli konfetlar
10.82.22.5	Ichiga masalliq solingan boshqa shokolad mahsulotlari
10.82.22.6	Ichiga masalliq solinmagan boshqa shokolad mahsulotlari
10.82.22.7	Tarkibida kakao bo'lgan pastalar
10.82.22.8	Tarkibida kakao bo'lgan, ichimlik ishlab chiqarish yoki tayyorlash uchun mo'ljallangan mahsulotlar
10.82.22.9	Boshqa guruhlarga kiritilmagan, tarkibida kakao bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari
10.82.23.1	Saqich
10.82.23.2	Oq shokolad
10.82.23.4	1 kg dan kam bo'lmagan idishlarda (upakovkalarda) pasta ko'rinishidagi shakarli qandolat mahsulotlari; asosan shakar va xushbo'ylashtiruvchi moddalardan iborat tomoq og'rig'iga qarshi pastila va yo'talga qarshi tabletkalar
10.82.23.5	Shakar bilan qoplangan mahsulotlar; rezinka va jele ko'rinishidagi qandolat mahsulotlari
10.82.23.6	Obaki karamel; toffi, boshqa karamellar va shu kabi shirinliklar
10.82.23.7	Xolva, boshqa sharq shirinliklari
10.82.23.9	Boshqa guruhlarga kiritilmagan shakarli qandolat mahsulotlari
10.82.24.0	Shakar qo'shib konservalangan (shakar siropi bilan to'yintirilgan, qiyomga yoki shakarga bosilgan) mevalar, yong'oqlar, mevalarning po'sti va o'simliklarning boshqa qismlari
10.83.11.0	Kofeinsiz yoki qovurilgan kofe
10.83.12.0	Kofe o'rnini bosuvchilar; kofe va kofe o'rnini bosuvchilarning ekstrakti, essensiyasi va konsentratlari; kofe donalarining qobig'i va po'sti
10.83.13.1	Fermentatsiyalanmagan ko'k choy, 3 kg dan ko'p bo'lmagan massali upakovkalarda
10.83.13.2	Fermentatsiyalangan qora choy va qisman fermentatsiyalangan choy, 3 kg dan ko'p bo'lmagan massali upakovkalarda
10.83.13.3	Fermentatsiyalanmagan ko'k choy, 3 kg dan ko'p bo'lgan massali upakovkalarda
10.83.13.4	Fermentatsiyalangan qora choy va qisman fermentatsiyalangan choy, 3 kg dan ko'p bo'lgan massali upakovkalarda
10.83.14.0	Choy yoki mate asosidagi ekstraktlar, essensiyalar, konsentratlar va tayyor mahsulotlar
10.83.15.0	O't damlamalari
10.84.11.0	Sirka kislotasidan olinadigan sirka va uning o'rnini bosuvchilar
10.84.12.1	Soya qaylasi
10.84.12.2	Ketchup va pomidordan boshqa qaylalar
10.84.12.3	Xantal uni va kukuni
10.84.12.4	Tayyor gorchitsa
10.84.12.5	Mayonez qaylasi
10.84.12.9	Boshqa guruhlarga kiritilmagan qaylalar va qayla tayyorlash uchun mahsulotlar, aralash ziravor va dorivorlar
10.84.21.0	Ishlov berilgan qalampir (Piper)
10.84.22.0	Quritilgan, ishlov berilgan chili qalampiri va paprika (Capsicum, Pimenta)
10.84.23.0	Ishlov berilgan dolchin; ishlov berilgan boshqa ziravorlar
10.84.30.0	Osh tuzi
10.85.11.0	Go'sht, go'sht submahsulotlari yoki qon asosidagi tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va taomlar

MST kodi	Mahsulot nomi
10.85.12.0	Baliq, qisqichbaqasimonlar va mollyuskalar asosidagi tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va taomlar
10.85.13.0	Sabzavotlar asosidagi tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va taomlar
10.85.14.0	Makaron mahsulotlari asosidagi tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va taomlar
10.85.19.0	Boshqa tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va taomlar (jumladan muzlatilgan pitsa)
10.86.10.1	Kolbasa mahsulotlaridan tashqari, go'shtdan, go'sht submahsulotlaridan yoki qondan tayyorlangan gomogenizatsiyalangan mahsulotlar
10.86.10.2	Gomogenizatsiyalangan sabzavotlar (muzlatilgan, sirka yoki sirka kislotasi qo'shib konservalanganlardan tashqari)
10.86.10.3	Gomogenizatsiyalangan tayyor meva va rezameva jemlari, jele, meva va yong'oqdan pyure va pastalar
10.86.10.4	Bolalar ovqati yoki parhez ovqatlanish uchun murakkab gomogenizatsiyalangan oziq-ovqatlar
10.86.10.5	Bolalar ovqatlanishi uchun quruq sut aralashmalari
10.86.10.9	Bolalar ovqatlanishi uchun boshqa tayyor oziq-ovqatlar (murakkab gomogenizatsiyalangan oziq-ovqatlar va quruq sut aralashmalaridan tashqari)
10.89.11.0	Sho'rva va qaynatma sho'rvalar va ularni tayyorlash uchun yarim mahsulotlar
10.89.12.1	Konservalangan yoki pishirilgan po'choqli tuxum
10.89.13.0	Xamirturush (faol va nafaol), boshqa o'lik bir xujayrali mikroorganizmlar; tayyor novvoychilik kukunlari
10.89.14.0	Go'sht, baliq va suv umurtqasizlaridan sharbat va ekstraktlar
10.89.19.0	Boshqa guruhlarga kiritilmagan oziq-ovqat mahsulotlari
11.07.11.1	Shirinlik qo'shilmagan tabiiy mineral gazli suvlar
11.07.11.2	Shirinlik qo'shilmagan tabiiy mineral gazzsiz suvlar
11.07.11.9	Shirinlik qo'shilmagan va xushbo'ylashtirilmagan boshqa suvlar
11.07.19.1	Shakar, boshqa shirinlik yoki xushbo'ylashtiruvchi moddalar qo'shilgan suvlar, jumladan mineral va gazli suvlar
11.07.19.2	Kvas
11.07.19.3	Uzum yoki boshqa o'simlik xomashyosi bilan boyitilgan choy ichimliklari
11.07.19.9	Boshqa guruhlarga kiritilmagan, boshqa spirtsiz ichimliklar
Vino-arq mahsulotlari va pivo	
11.01.10.1	Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari
11.01.10.2	Aroq
11.01.10.3	Likyorlar
11.01.10.9	Distillangan boshqa spirtli ichimliklar
11.02.11.0	Vijillaydigan tabiiy uzum vinolari
11.02.12.1	Spirt qo'shilmagan tabiiy uzum vinolari (vijillaydigan vinodan tashqari)
11.02.12.2	Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari
11.02.12.3	Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari
11.03.10.0	Boshqa bijg'itilgan ichimliklar (olma vinosi, nok vinosi, asal qo'shilgan ichimlik); tarkibida spirt bo'lgan ichimliklar aralashmalari
11.04.10.0	Vermut va boshqa xushbo'ylashtirilgan tabiiy uzum vinolari
11.05.10.0	Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilaridan tashqari)
Nooziq-ovqat tovarlari	
To'qimachilik mahsulotlari	
13.10.40.2	Chakana savdo uchun qadoqlangan ipak ip va ipak chiqindilaridan olingan ip
13.10.50.2	Chakana savdo uchun qadoqlangan hayvonlarning junidan yoki ingichka yoki dag'al tukidan olingan ip

MST kodi	Mahsulot nomi
13.10.61.3	Chakana savdo uchun qadoqlangan paxtadan yigirilgan ip (tikuv iplaridan tashqari)
13.10.62.0	Paxtadan yigirilgan tikuv iplari
13.10.81.2	Chakana savdo uchun qadoqlangan kimyoviy kompleks iplardan olingan iplar (tikuv iplaridan tashqari)
13.20.11.1	Taroqdan chiqqan ipak tola chiqindisidan to'qilgan gazlamalar
13.20.11.2	Turli rangdagi iplardan to'qilgan milliy ipak gazlamalar
13.20.11.9	Tabiiy ipak yoki ipak chiqindilaridan to'qilgan boshqa gazlamalar
13.20.12.1	Kardli yoki taroqli taralgan jun ipdan (qo'y juni) yoki hayvonlarning ingichka tukidan to'qilgan gazlamalar
13.20.13.0	Zig'ir tolasidan to'qilgan gazlamalar
13.20.20.111	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrдан ko'p bo'lmagan, oqartirilmagan ip gazlamalari (bint, bog'lash materiallari, tibbiy doka ishlab chiqarish uchun matolar)
13.20.20.112	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrдан ko'p bo'lmagan, boshqa oqartirilmagan ip gazlamalari
13.20.20.113	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 100 g/kv.metrдан ko'p va 130 g/kv.metrдан kam bo'lgan, eniga 165 sm.dan oshmagan, oqartirilmagan, eni buzilmay to'qilgan ip gazlamalari
13.20.20.114	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 100 g/kv.metrдан ko'p va 130 g/kv.metrдан kam bo'lgan, eniga 165 sm.dan ko'p, oqartirilmagan, eni buzilmay to'qilgan ip gazlamalari
13.20.20.115	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 130 g/kv.metrдан ko'p va 200 g/kv.metrдан kam bo'lgan, eniga 165 sm.dan oshmagan, oqartirilmagan, eni buzilmay to'qilgan ip gazlamalari
13.20.20.116	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 130 g/kv.metrдан ko'p va 200 g/kv.metrдан kam bo'lgan, eniga 165 sm.dan ko'p, oqartirilmagan, eni buzilmay to'qilgan ip gazlamalari
13.20.20.117	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrдан ko'p bo'lmagan, oqartirilmagan 3 yoki 4 iplik sarjadan to'qilgan ip gazlamalari, teskari sarjaliklarni qo'shgan holda
13.20.20.119	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrдан ko'p bo'lmagan, oqartirilmagan boshqa ip gazlamalari
13.20.20.121	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 100 g/kv.metrдан ko'p bo'lmagan, oqartirilgan eni buzilmay to'qilgan ip gazlamalari (bint, bog'lash materiallari, tibbiy doka ishlab chiqarish uchun matolar)
13.20.20.122	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 100 g/kv.metrдан ko'p bo'lmagan, oqartirilgan eni buzilmay to'qilgan boshqa ip gazlamalari
13.20.20.123	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 100 g/kv.metrдан ko'p va 130 g/kv.metrдан kam bo'lgan, eniga 165 sm.dan oshmagan, oqartirilgan, eni buzilmay to'qilgan ip gazlamalari
13.20.20.124	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 100 g/kv.metrдан ko'p va 130 g/kv.metrдан kam bo'lgan, eniga 165 sm.dan ko'p, oqartirilgan, eni buzilmay to'qilgan ip gazlamalari
13.20.20.125	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 130 g/kv.metrдан ko'p bo'lgan, eniga 165 sm.dan oshmagan, oqartirilgan, eni buzilmay to'qilgan ip gazlamalari
13.20.20.126	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt

MST kodi	Mahsulot nomi
	zichligi 130 g/kv.metrndan ko'p bo'lgan, eniga 165 sm.dan ko'p, oqartirilgan, eni buzilmay to'qilgan ip gazlamalari
13.20.20.127	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrndan ko'p bo'lmagan, oqartirilgan 3 yoki 4 iplik sarjadan to'qilgan ip gazlamalari, teskari sarjaliklarni qo'shgan holda
13.20.20.129	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrndan ko'p bo'lmagan, oqartirilgan boshqa ip gazlamalari
13.20.20.131	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 100 g/kv.metrndan ko'p va 130 g/kv.metrndan kam bo'lgan, eniga 165 sm.dan ko'p, bo'yalgan eni buzilmay to'qilgan ip gazlamalari
13.20.20.132	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrndan ko'p bo'lmagan, bo'yalgan 3 yoki 4 iplik sarjadan to'qilgan ip gazlamalari, teskari sarjaliklarni qo'shgan holda
13.20.20.139	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrndan ko'p bo'lmagan, bo'yalgan boshqa ip gazlamalari
13.20.20.141	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 100 g/kv.metrndan ko'p bo'lmagan, bosma eni buzilmay to'qilgan ip gazlamalari
13.20.20.142	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 100 g/kv.metrndan ko'p va 200 g/kv.metrndan oshmagan, bosma eni buzilmay to'qilgan ip gazlamalari
13.20.20.143	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrndan ko'p bo'lmagan, bosma 3 yoki 4 iplik sarjadan to'qilgan ip gazlamalari, teskari sarjaliklarni qo'shgan holda
13.20.20.144	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrndan ko'p bo'lmagan, bosma boshqa ip gazlamalari
13.20.20.149	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrndan ko'p bo'lmagan, oldingi guruhlariga kiritilmagan boshqa ip gazlamalari
13.20.20.211	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrndan ko'p bo'lgan, oqartirilmagan eni buzilmay to'qilgan ip gazlamalari
13.20.20.212	Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrndan ko'p bo'lgan, oqartirilmagan 3 yoki 4 iplik sarjadan to'qilgan ip gazlamalari, teskari sarjaliklarni qo'shgan holda
